

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi
MUSIQA MASHG'ULOTINI O'TKAZISH METODIKASI,
ZAMONAVIY KONSEPSIYALARI VA ME'YORIY-HUQUQIY
HUJJATLAR

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Musiqa ta'limi kafedrasи o'qituvchisi

O'qituvchi: Karimov Saxob Baxromovich

E-mail address: [karimovsaxob1@gmail.com](mailto:kirimovsaxob1@gmail.com).

Tel: +998 88-329-00-71

Annotatsiya: Ushbu maqolada muktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarida fanlararo integratsiyalashuvni tashkil etish bo'yicha mavzular mazmun mohiyatidan kelib chiqib mashg'ulot rejalarini ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa mashg'ulotlari, integratsiyalashuv, kompozitor, o'qituvchi, o'quvchi, tabiat, ohang, kuy, tarbiyalanuvchilar, texnologiya, bilm, malaka, ko'nikma, idrok.

Bugungi bolalar qayerda yashashidan qat'iy nazar, doimiy ravishda ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ilmiy, texnikaviy va industrial sohalardagi o'zgarishlar bilan to'qnash kelishlariga to'g'ri keladi. Bolaning rivojlanishi va o'sishi uzlusiz davom etadigan jarayondir. Bu davrda uning shaxs sifatida shakllanishi, ilk bor olamni atrofidagi ashyo va buyumlar orqali anglab, undan o'zicha ma'no topishga intilishi, qiziqish va hissiyotlari rivojlanishini kuzatamiz.

Hayotning har bir davri, rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko'ra o'ziga xos bosqichlarga ega. Bolaning o'sib, ulg'ayishida muktabgacha bo'lgan davrni shular sirasiga kiritish mumkin. Bolalar ohangraboli olam hisoblanib, juda tez o'sish, rivojlanish va o'zgarishlar ichida yashaydilar. Bu farzand tarbiyasida aynan shu palla qanchalik ahamiyatli ekanining yana bir isbotidir.

Bolaning rivojlanishi, ruhiyati va ta'lim-tarbiyasidagi o'ziga xos davrlar,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

davrlarga monand o‘zgarishlar, muammolar haqida hikoya qiladigan ushbu dastur nafaqat tarbiyachilar, balki oilalar va ota-onalar uchun eng yaqin maslahatchi va sirdosh bo‘la oladi.

Maktabgacha ta‘lim bola shaxsini sog‘lom va yetuk, shu bilan birga maktabga tayyorlagan holda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi. O‘zbekiston Respublikasi «Ta‘lim to‘g’risida»gi Qonunning 11-moddasida: «Bu ta‘lim 6-7 yoshgacha oilada, bolalar bog’chasida va mulk shaklidan qat‘iy nazar, boshqa ta‘lim muassasalarida olib boriladi», - deb ta‘kidlangan. Darhaqiqat, ta‘lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, uning samarasi shunchalik erta namoyon bo‘ladi va insonning butun hayot tarziga ijobiy ta‘sir qiladi.

Maktabgacha ta‘lim tizimini takomillashtirish, ta‘lim-tarbiya jarayonini tarbiyachilar tomonidan to‘g‘ri tashkil etilishi, mas‘ul shaxslar tomonidan uni nazorat qilinishining afzalligini ta‘minlash, maktabgacha yoshdagi bolalar ota-onalarining oilada bola tarbiyasi bilan shug‘ullanishi uchun qulaylik yaratish maqsadida "Ilk qadam" tayanch dasturi «Ta‘lim to‘g’risida» gi Qonun, Maktabgacha ta‘lim Konsepsiysi hamda Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari asosida ishlab chiqildi.

Dastur mazmun-mohiyati bilan bolalarning psixofiziologik kamol topish tamoyilidan kelib chiqib, ularning atrof-olamdagи voqeа-hodisa, narsalarga munosabati hamda turli sohalar bilan aloqa qilishlarini nazarda tutadi. Dasturda o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, xalq o‘yinlari, musiqasi, raqslari, amaliy san‘at asarlari va tabiatiga katta ahamiyat berilgan. Shu bilan birga dasturda boshqa xalqlarga hurmat hissini tarbiyalash nazarda tutilgan va bolalarni mehribonlik, go‘zallik xayrixohlikka o‘rgatishga alohida urg‘u beriladi. Dasturni amalga oshirishda bolalarning jismoniy va psixik sog‘lig‘ini mustahkamlash, harakat va gigiyenik malakalari asoslarini shakllantirish vazifasini bajarish muhim hisoblanadi. Dastur bolalarga valeologik ta‘lim berishni nazarda tutadi: bolada sog‘lom turmush tarzi haqida tasavvurlar shakllangan bo‘lishi, gigiyenik va harakat madaniyatining muhimligini anglashi, salomatlikni asrash, organizmni himoya qilish, o‘zi va o‘zgalarga vaqtida zarur yordam ko‘rsatishni bilish kabilar bolaning shaxs

Ta'limning zamonaliviy transformatsiyasi

madaniyati, ijtimoiy himoyalanganini bildiradi.

Musiqa mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasi va maktabgacha ta‘limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat talablari. Maktabgacha ta‘lim jarayonida tarbiyalanuvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan minimal talablar. Musiqa mashg‘ulotlarini o‘tkazish metodikasi fanidan ta‘lim mazmunining minimal hajmi. Tarbiyalanuvchilarning musiqa mashg‘ulotlarida egallashi lozim bo‘lgan kompetensiyalari. Musiqa mashg‘ulotlari ta’limi dasturi mazmuni, mohiyati va tahlili. Mashg‘ulotlar tahlili. «Ilk qadam» maktabgacha ta‘lim muassasalari uchun ishlab chiqilgan dastur – davlat hujjati bo‘lib, musiqa rahbarini ta’limiy tarbiyaviy ishi, bolalarni barkamol tarbiyalab maktab ta‘limiga tayyorlashini nazarda tutadi. Musiqa mashg‘ulotlarini rejalshtirar ekan, pedagog bolalarning aqliy, jismoniy, emotsiyonal yuklamalarini hisobga olishi kerak va shunga ko‘ra o‘rgatiladigan repertuar va faoliyat turlarini ketma – ketligini to‘g‘ri tuzishi kerak.

Har bir musiqa rahbari xar bir musiqa mashg‘ulotini qiziqarli va bolalar xotirasida uzoq saqlanishi uchun ko‘rgazmalardan unumli foydalanishni bilishi zarur. Mashg‘ulotni tashkillashda musiqa rahbari quyidagilarni yoddan chiqarmasligi kerak:

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

-
1. • mashg‘ulot bayoni, yangi qo‘sishq, raqs xarakatlari, foydalilaniladigan cholg‘u asboblari uchun tayyorlangan ko‘rgazmalar;
 2. • qismlarni bir-biriga uzviy bog‘lay olish;
 3. • bolalarni qiziqtirish uchun ularning yosh xususiyatlarini e‘tiborga olgan xolda sodda va past ohangda muloqatda bo‘lish;
 4. • texnika vositalaridan foydalana olish;
 5. • musiqiy ta‘limiy va didaktik o‘yinlar yordamida bolalar bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlab borish;
 6. • musiqaviy xarakatli o‘yinlarni atributlar va o‘yinchoqlar yordamida tashkillashtirish.


Mashg‘ulotni rejallashtirishda quyidagilarga e’tibor berish kerak:

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

-
1. • Musiqa tinglashda rasmlardan, bastakor va kompazitor portretlaridan, xilma-xil rangdagi shakllardan foydalanish;
 2. • Ovoz diapozonini kengaytirish mashqlarida musiqali zinacha ko‘rgazmali quollar, tarqatma materiallardan foydalanish;
 3. • Qo‘sish quylaganda rasmlarga qarab qo‘sish nomini topish;
 4. • Laparlar va raqslarni ijro etganda atributlar(gullar, lentalar, v.b.) foydalanish;
 5. • Bolalarni ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda musiqali xarakatli va obrazli o‘yinlarni o‘rgatilganda shu o‘yinga mos atributlarni tayyorlab fikrlashga o‘rgatish,

Ma‘lumki, nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishslashda, ularning nutqlarini tiklashda musiqa mashg‘ulotlari katta o‘rin tutadi. Bunday guruh bolalari bilan musiqa rahbari logoped musiqa rahbari bilan hamkorlikda ishlasa o‘z maqsadiga yetadi.

Nutqida nuqsoni bor bolalarning nutqini tiklashda musiqa rahbarlari ko‘proq logoritmikaga e‘tibor qilishlari ko‘zda tutiladi. Bunda:



Yuqorida ko'rsatilgan tavsiyalar mashg'ulot jarayonida o'z samarasini beradi. Bolalarning musiqa tafakkurini rivojlantridi. Idroki va hissiyotini tarbiyalaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar yorqin va quvnoq ranglarni xush ko'radilar, ularda bu orqali quvnoqlik hissiyotlari rivojlanib boradi.

O'quv materiali murakkabligiga ko'ra xilma – xildir: ko'proq aqliy faoliyatni, diqqatni talab qiladigan vazifalarni mashg'ulotlar boshida berish kerak. Kuylashdan oldin murakkab jismoniy mashqlarni berish mumkin emas, chunki bunday mashqlar bolalarni nafas olishlarini qiyinlashtiradi. Amaliyotga ko'ra faoliyat turlarini quyidagicha berish maqsadga muvofiq.

Hulosa o'rnida shuni aytish joizki maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yuqorida ko'rsatilgan zamonaviy texnologiyalarga asoslangan holda mashg'ulot olib borish, albatta o'z samarasini beradi. Musiqa taffakurini rivojlantridi, idroki va hissiyotlarini tarbiyalashda katta rol o'ynaydi. Shuningdek ham aqliy ham

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

jismonan kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qudratov I, Abdukarimova E. "Musiqa darslarida fanlararo aloqadorlik" Samarqand, SamDu bosmaxonasi, 2015yil.
2. E.Abdukarimova. Ilm ham jamiyet Ajiniyaz atindagi Nokis mamleketlik pedagogikaliq instituti "Texnologik loyihalash- musiqa mashg'ulotlarida samarali ta'limg". 2019 (№1) ISSN 2010-720X.
3. Elnoza Ismatillayevna Abdukarimova Актуальные вызовы современной науки. "Yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda xalq musiqa merosi qudratli tarbiya vositasi" iscience 2017 yil.
4. S.B.Karimov."Musiqa darslarini fanlararo aloqadorlikda tashkil etishning o'ziga xos uslublari" . Alma mater Samarqand.2014-yil 2-kitob. 51-52-bet.
5. Karimov S. Musiqa darslarining fanlararo integratsiyalashuv jarayonidagi muammolari va yechilishi zarur bo'lgan vazifalar. O'zMU xabarları. 2022/1/5/1. Toshkent 2022.
6. Karimov S. "The importance of using interdisciplinary integration in shaping students' knowledge and skills". Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). India 2021-yil. 8-avgust. 264-268 bet.
7. Karimov S. "O'quvchilarning bilm va malakalarini shakllantirishda fanlararo integratsiyalashuvni qo'llashning ahamiyati". Masofaviy ta'limi tashkil etishning pedagogik-psixologik jihatlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Toshkent-2021-yil noyabr. 295-297-bet.
8. Karimov S. "Musiqa darslarini tabiat fani bilan o'zaro bog'liqlikda tashkil etishning o'ziga xos uslublari". "Xorijiy filologiya, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik masalalari" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Jizzax 2021-yil 23-fevral. 238-241 bet.
9. Karimov S. "Umumta'lim maktablarida musiqa darslarini jismoniy harakatlar uyg'unligida tashkil etishning o'ziga xos uslublari". Osiyo san'ati. Tom 1.№ 2. 2021-yil. 05.17.Журнал музыки и искусства, извлечено от <https://art.jspi.uz/index.php/art/article/view>.